

TURSUNBOY ADASHBOYEV IJODIDA ONA TABIAT VA VATAN MADHI.

Jamilova Norjon Abduxoliq qizi

O'zbekiston Finlandiya Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti

203-guruh talabasi

Annotasiya: *Mazkur maqolada o'zbek bolalar adabiyotida o'z o'rniga ega ijodkor Tursunboy Adashboyevning ijodida ona tabiatga bo'lgan muhabbat, Vatanga bo'lgan sadoqat, vatanparvarlik tuyg'ularining tarannum etilishida o'ziga xosligi haqida fikrlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *o'zbek bolalar adabiyoti, ona tabiat, Vatanga muhabbat, tuproq, momaqaymoq, tabiat manzaralari.*

Inson ega bo'lgan narsalar ichida eng bebahosi – dini va Vatanidir. Biror inson yo'qki, Vatanini ulug'lamasa. Chunki Vatan uning kindik qoni to'kilgan, go'daklik chog'i o'tgan, ilk qadamlarini qo'ygan, yoshlik, keksalik davrlarini surgan, xotiralari muhrlangan, ota-bobolarining yurti, farzand-u nabiralari ulg'aygan zamindir! Mitti chumolini ko'ring, rizq talabida qancha joylarga boradi, tepaliklarga qiynalib chiqadi. Bu ham o'z iniga – Vataniga qaytadi.

Ba'zi hayvonlar asl Vatanidan boshqa joyga ko'chirilsa nobud bo'lib qoladi. Ko'ryapsizmi, hamma hazrati insondan tortib mayda hasharotlargacha o'z Vatanini sevadilar. Demak, bu mavjudotlardagi Allohning odati, chiqargan qonuni! Uni inson fitratiga Alloh solib qo'ydi. Bo'lmasa harorati oltmishga yetadigan issiq joylarda yoki harorat noldan past bo'lgan shimoliy qutblarda yoxud o'rmonlarda, har kun hayot uchun xavfli yerlarda ularni yashashga nima majbur qiladi?! Ularni bunga undagan narsa faqatgina Vatanlariga bo'lgan muhabbatdir. Vatanga muhabbatni yoshlar qalbiga singdirishda adabiyotning o'rne beqiyosdir. Hususan, shoirlar she'rlarida tarannum etilgan vatan tuygulari yosh avlod qalbidagi yuksak tuyg'ularni jumbushga keltirishda buyuk kuch bo'lib hizmat qiladi. Ana shunday vatanga, ona tabiatga bo'lgan cheksiz sevgini yoritgan tengi yo'q shoir, ko'p qirrali ijodkor Tursunboy Adashboyev ijodi haqida gaplashamiz.

O'zbek bolalar taraqqiyotiga alohida hissa qo'shgan shoir va yozuvchilar ijodiy faoliyatlarini o'rganish o'zbek bolalar adabiyotini mukammal tarixini yaratishga imkon berish barobarida yosh avlod ma'naviyatini shakllantirishdagi o'rnini xolis belgilashga ham xizmat qiladi. Milliy, madaniy, adabiy qadriyatlarining tiklanayotgan bugungi kunda yosh avlod ma'naviy kamolotida bolalar adabiyotining alohida o'rin tutishi masalaning dolzarbligini yanada oshiradi. O'zbek bolalar adabiyotining salkam ellik yillik tarixi bilan hamqadam borayotgan, yigirmaga yaqin she'riy to'plamlari nashr qilingan iste'dodli shoir Tursunboy Adashboyev ijodini o'rganish va tadqiq etish shu jihatlardan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Tursunboy Adashboyev o'z ijodida ko'proq mavzuni ona tabiat va Vatan madhini tarannum etishga qaratadi. Masalan, shoir „Tuproq" she'rida:

Ajdodlardan meros bo'lib,
Qolgan tuproq .
Bobolarning qon va teri,
Tomgan tuproq.
Qizg'aldoqlar ochilganda,
Qilmay kanda.
Qir-adirlar gulxan bo'lib,
Yongan tuproq.

Ushbu she'rda tabiatning buyuk ne'mati bo'lmish tuproqning qanchalik qadrli ekanligi, o'z ajdodlaridan meros bo'lib qolganligi, hattoki qir-adirlarda qizg'aldoqlar ochilishi uchun har qanday sharoitda ham chidab tura olishi haqida aytilgan. Inson tuproqdan yaralgan va umrining oxirida ham tuproqqa aylanadi. Shoirning „Ajdodlardan meros" degan so'ziga e'tibor beraylik? U oltin-u javohirlarni ajdodlardan meros desa ham bo'ladiki. Lekin shoirning oltin-u javohirlar o'rniga bobolarining qon va teri tomgan tuproqni aziz va muqaddas bilishidan o'z Vataniga, o'z ota-bobolariga, o'z ona tabiatiga qanchalik sadoqatli ekanligini bilsak bo'ladi.

Shoirning „Osmon qaydan boshlanadi?" she'rida:

Chumolining vaqti ziqroq,
Gapi qisqa, qalbi qaynoq.
Uning uchun ko'k gardishi,
Oltin rangli momaqaymoq.

Bu she'rda tabiatning mittigina mo'jizasi chumolining kichkinaligi sababli tabiatda yuz beradigan hodisalarni: quyosh chiqishi va quyosh botishini ko'ra olmasligi, ko'k gardishi ya'ni quyoshni oltin rangli momaqaymoq dep o'ylashini ta'kidlab o'tgan. Tabiat bag'ridagi oddiy jismlarni va jismlarning harakatini diqqat bilan kuzatganda, jismlarning naqadar ulkan ma'no kasb etishini shoir ushbu she'rida isbotlagan.

Tursunboy Adashboyev ijodida vatanimiz tarixi va tarixiy joylari tasviriga bag'ishlangan she'rlari alohida o'rin tutadi. Uning ushbu mavzudagi she'rlari ma'rifat nuri charog'bonlari bo'lmish ota-bobolarini tanish, ularga munosib zuryodlar bo'lishga chorlashi bilan davr talabiga hamohang, badiiy jihatdan barkamol asarlar sifatida o'zbek bolalar she'riyatida o'ziga xos hodisa bo'ladi. Bir qismi sho'ro davrida yaratilib, keyinchalik qayta ishlangan ushbu mavzudagi she'rlarda shoirning poetik mahorati o'z-o'zini tahrir qilishga, har bir so'z zimmasiga muayyan badiiy estetik vazifa yuklay olishda ham namoyon bo'ladi.

Tursunboy Adashboyevning yil fasllari va tabiat manzaralari tasviriga bag'ishlangan asarlaridagi turli badiiy san'atlarni mohirona qo'llashga asoslangan

tasvir uslubi manzara mukammalligini oshiradi, yuksak badiyatini ta'minlaydi, manzaraning o'quvchi ko'z o'ngida yorqin namoyon bo'lishiga olib keladi.

Xulosa o'rniga shuni aytishim mumkinki, Tursunboy Adashboyev asarlarining mavzu ko'lami nihoyatda keng. Shoir Vatan madhini va tabiat manzaralarini rangin bo'yoqlarda tasvirlar ekan, uni avaylab asrash motivlarini ham deyarli barcha she'rlarida goh yashirin, goh oshkora tarzda aks etadi. Bu tasvirlar yosh kitobxon qalbida go'zallikni his qilish tuyg'ularini shakllantirish hamda ona tabiatning qadriga yetish, tabiat go'zalliklarini asrab-avaylash ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. Toshkent. Fan. 1989
2. Qahramonov Q. Adabiy tanqid va o'zbek bolalar adabiyoti. Toshkent. Fan. 1991
3. T. Adashboyev Orzularim qo'sh qanotim. Toshkent. Sharq, 2003
4. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent. O'qituvchi. 1994
5. Bolalar adabiyoti va zamonaviylik. Toshkent. Fan. 1981
6. Suyumov A. Jumaboyev R. Bolalar adabiyoti. Toshkent. O'qituvchi. 1995
7. O'zbek bolalar analogiyasi. Toshkent. Sharq. 2008 .